



JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYAT SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023- YIL YANVAR - OKTABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2023- yil yanvar-oktabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 16311,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,7 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'lishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 8,5 % ga, o'ishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan tomonidan 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 237,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,5 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda



2023-yil yanvar-oktabr

Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

Tumanlar nomi	2022- yil yanvar-oktabr	2023- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
G‘allaorol tumani	20 948,6	29 641,4	8 692,8
Sharof Rashidov tumani	48 084,6	30 029,4	- 18 055,2
Forish tumani	16 146,5	9 114,8	-7 031,7
Jizzax shahri	23 760,8	151 843,8	128 083,0
Zafarobod tumani	11 687,9	8 387,3	- 3 300,6

Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga 63,9 % Sharof Rashidov tumaniga to‘g‘ri kelib 12,6 % ni va G‘allaorol tumani 12,5 % ni tashkil etdi.

35,8 %


2022- yil

147,7 %

2023- yil

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar-oktabr oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15777,2 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,6 % ini tashkil etdi.


2022-yil yanvar-oktabr

94,0 %

2023-yil yanvar-oktabr

97,6 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % (0,1 %) ni o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 54,9 % (25,1 %) ni, o'rta-quyi texnologiyali 15,3 % (21,3 %) va quyi texnologiyalisi - 26,5 % (47,5 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 52,4 % (2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,8 % (2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 130,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,8 % (2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,6 % (2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,0 % (2022- yilning yanvar –oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,0 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti



Paxta linti




O'simlik yog'i (tozalangan)



Trikotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-oktabr	2023- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	35 491,9	20 464,3	-15 027,6
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	46 282,6	13 387,9	-32 894,7
Paxta chigiti, t.	58 505,9	31 327,3	- 27 178,6
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	7 414,4	5 069,1	-2 345,3
Paxta linti, t.	4 320,1	1 842,5	-2 477,6
Trikotaj polotnolar, t.	1 569,0	2 203,0	634,0

2023- yilning yanvar-oktabr oyilar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 13,4 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (70,2 % kamaygan), 20,5 ming tonna paxta tolasi (42,3 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 31,3 ming tonna paxta chigiti 46,5 % ga) kamaygani kuzatildi.

Yumshoq bug‘doy va spelta uni

29,8 %


Paxta tolasi, t.

57,7 %


O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 128,4 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-oktabr oylar yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,8 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 130,3 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 125,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 15,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 78,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-oktabr oylar yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 124,6 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 1972,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 103,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-oktabr oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 98,2 % tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1039,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 59,9 % ni tashkil etgan. 2023- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 116,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 28,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 102,1 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 96,6 % tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2410,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2022-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 100,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 %, fizik hajm indeksi 117,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 482,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 90,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni, fizik hajm indeksi 126,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 502,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 93,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4 % ni, fizik hajm indeksi 125,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 553,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 72,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni, fizik hajm indeksi 98,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 306,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 229,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,4 % ini) tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 27,6 % ga pasayishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-oktabr	2023- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	250 594,3	171 273,2	-79 321,1
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	57 928,9	58 593,2	664,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 66,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-oktabr	2023- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	51 527,5	53 820,9	2 293,4
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	19 831,9	12 745,7	-7 086,2

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 4,5 % ga o'sishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 11,7 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 9571,8 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2022 yilning mos davriga nisbatan 189,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 58,7 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022-yil
yanvar-oktabr

26,4%

2023-yil
yanvar-oktabr

8,8%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022-yil
yanvar-oktabr

73,6%

2023-yil
yanvar-oktabr

91,2%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 8,8 % (2022- yil yanvar-oktabr oylarida 26,4 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 25,2 % ni va Zarbdor tumani 9,5 % ni, Zomin tumani 19,9 % ni hamda Paxtakor tumani 16,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Zomin tumanida (120,1 %), Forish tumanida (109,9 %) hamda Yangiobod tumanida (102,5 %), qayd etildi.

Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2747 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 756 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 27,5 % i) Jizzax shahriga, 389 tasi (14,2 %) Sharof Rashidov tumaniga, 325 tasi (11,8 %) G'allaorol tumaniga, 251 tasi (9,1 %) Zomin tumaniga va 180 tasi (6,5 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2021-yil

759 dona

2022- yil

696 dona

2023- yil

724 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2021- yil

3 833 dona

2022- yil

4 019 dona

2023- yil

2 747 dona